

FOLKLOR MATNLARIDA MILLIY RUHIYATNING AKS ETTIRILISHI

Ergashova Baxora Sayfullayevna
O'zDJTU Italian tili tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrasi katta o'qituvchisi
ergashova.baxoram@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada folklor matnlarida milliy ruhiyatning aks ettirilish masalasi italyan va o'zbek folklori misolida tadqiq qilinadi. Folklorshunos olimlarning fikrlari, qarashlari asosida materiallar tahlil qilinadi. Folklor matnlari orasida maqollarga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: folklor matnlari, milliy ruh tushunchasi, mifologiya, maqollar tahlili, folklorda axloq va tarbiya masalasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос отражения национального духа в фольклорных текстах на примере итальянского и узбекского фольклора. На основе мнений и взглядов фольклористов анализируются материалы. Особое внимание уделяется пословицам в фольклорных текстах.

Ключевые слова: фольклорные тексты, понятие национального духа, мифология, анализ пословиц, вопросы морали и воспитания в фольклоре.

Abstract: This article examines the reflection of the national spirit in folklore texts using Italian and Uzbek folklore as examples. The materials are analyzed based on the opinions and views of folklorists. Particular attention is paid to proverbs in folklore texts.

Keywords: folklore texts, concept of national spirit, mythology, proverb analysis, issues of morality and upbringing in folklore.

ملخص

تناول هذه المقالة مسألة انعكاس الروح الوطنية في نصوص الفولكلور مستخدمة الفولكلور الإيطالي والأوزبكي كممثلة. يتم تحليل المواد بناءً على آراء وجهات نظر علماء الفولكلور. يولي اهتماماً خاصاً للأمثال في نصوص الفولكلور.

الكلمات المفتاحية: نصوص الفولكلور، مفهوم الروح الوطنية، الأساطير، تحليل الأمثال، قضايا الأخلاق وال التربية في الفولكلور.

Folklor har bir millat madaniyatining asosiy tarkibiy qismidir. U hikoyalar, afsonalar, qo'shiqlar, maqollar, raqslar va boshqa an'analarda ifodalanadi va bu an'analar avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tkaziladi. Ushbu folklor matnlar, oddiy hikoyalar yoki san'at namoyishlari kabi ko'rinishi mumkin, ammo ular aslida bir xalqning madaniy o'zligi, umumiyligini qadriyatlari va an'analarini ifodalovchi kuchli vositalardir. Folklor matnlarining eng qiziqarli va muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular bir jamiyatning milliy ruhiyatini aks ettirishi, ya'ni millatning mohiyatini belgilovchi ideallar, ishonchlar va ramzlar to'plamini ifodalashi mumkin.

Folklor ma'lum bir madaniy va tarixiy kontekstda rivojlanadi va bir jamiyatning kundalik tajribalari, his-tuyg'ulari, kurashlari, orzulari va dunyoqarashini ifodalashga xizmat qiladi. Shu ma'noda folklor matnlar xalqning "tirik xotirasi" hisoblanadi. Bir madaniyatning ertaklari, afsonalari, qo'shiqlari yoki maqollarini tahlil qilishda, o'sha xalqning qadriyatlari, orzulari va umidlari haqida ma'lumot beruvchi elementlarni aniqlash mumkin. Ushbu matnlar millatning kelib chiqishi, uning qahramonlari, an'analari va tabiat bilan bog'liqligini hikoya qiladi.

Folklorning eng yaqqol ko'rinaligan jihatlaridan biri uning umumiyligi qadriyatlarni ifodalash qobiliyatidir. Folklor matnlarida odatda axloqiy, etnik va ijtimoiy ta'limotlar to'la bo'lib, ular jamiyat tomonidan baham ko'rilmagan me'yorlar va prinsiplarga mos keladi. Masalan, ertaklarda yaxshilik doimo yovuzlikni yengadi, halollik mukofotlanadi va aldov jazolanadi. Ushbu mavzular jamiyatdaadolat tushunchasini aks ettiradi va axloqiy tartibni o'matish istagini namoyon etadi. Xuddi shunday, xalq qo'shiqlari va maqollar ko'pincha hayotning qiyinchiliklari bilan qanday kurashish, mehnat, oilaviy qadriyatlari va jamiyatning ahamiyati haqida saboqlarni o'z ichiga oladi. Ko'plab madaniyatlarda, folklor shuningdek milliy tarixni saqlash va avlodlarga yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy qahramonlar, urushlar, istilolar va zulmga qarshi qo'zg'alolnarni hikoya qiluvchi afsonalar xalqning o'zlikini uchun juda muhimdir. Ushbu hikoyalar tarixiy xotira bilan chambarchas bog'liq, ammo ular kuchli simvolik va mifologik yondashuv bilan xalq an'analari orqali qayta ishlanadi. Masalan, kelt madaniyatida, Artur kabi qadimgi qahramonlar haqida hikoyalar yoki ulkan janglar haqidagi afsonalar faqatgina urushlar haqida hikoya qilmaydi, balki millatning erkinlik va mustaqillik uchun kurashining ramzidir. Folklor matnlarida milliy ruhiyatni ifodalovchi ko'plab simvollar mavjud. Ko'pincha, tabiat hikoyalar sahnasi bo'lib, xalqning hayotini aks ettiradi. Tog'lar, daryolar, o'rmonlar yoki dengizlar faqat harakatlar maydoni emas, balki ular o'zlarini ham obrazga aylanadi, ular mamlakatning madaniyati bilan bog'liq chuqur ma'nolarga ega. Ko'plab an'analarda, yer himoya qiluvchi ona sifatida ko'rildi, tuproq esa odamlarning chuqur ildizlari va bog'liqligini anglatadigan ramzga aylanadi. Tabiat, shuningdek, kundalik hayotning go'zalligini va muqaddasligini nishonlashning usuli bo'lib, inson va atrof-muhit o'rtasidagi kuchli bog'lanishni ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, folklor matnlaridagi mifologik elementlar va g'ayritabiyyiyligi qahramonlar faqatgina fantastik tasvirlar emas, balki ularni yaratgan xalq uchun muhim tushunchalarni aks ettiradi. Ilohlar, ruhlar, hayvonlar va boshqa mifologik mavjudotlar ko'pincha tabiat kuchlariga hurmat, yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash yokiadolatsizlikka qarshi kurash kabi ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni bilan bog'liqdir.

Folklorning milliy o'zlikni shakllantirishdagi va madaniy qadriyatlarni saqlashdagi o'rni haqida bir nechta olimlar tadqiqotlar o'tkazgan. Ulardan biri rus folkloristi Vladimir Propp bo'lib, o'z tadqiqotlarida rus ertaklarining tuzilishini o'rganib, xalq hikoyalarida takrorlanadigan tuzilma va tarkiblarni aniqlagan. U "milliy ruh" mavzusiga alohida e'tibor bermagan bo'lsa-da, "Морфология сказки" (Ertaklar morfologiyasi) nomli monografiyasida keltirilgan ertaklarni tahlil qilish usuli

folklorning madaniy va kollektiv qadriyatlarni qanday aks ettirishi mumkinligini tushunishga yordam beradi. Boshqa bir rus olimi, faylasuf va madaniyatshunos Mixail Baxtin, o'zining "Fransua Rable ijodi, o'rta asrlar va Uyg'onish davridagi xalq madaniyati" nomli asarida "karnavalniy" tushunchasi orqali folkloرنi o'rganib, shaxs madaniyati va xalq madaniyati o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aks ettirgan. Baxtinning asarlari ayniqsa, folklorning madaniy ifodalar maydoni sifatida qanday ishlashi va jamiyatni aks ettirishi haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Rus yozuvchisi va nazariyotchisi M. Gorkiy esa, o'zining "Rus folklori" nomli asarida folkloرنi omma madaniyati sifatida keng o'rganib, u repressiyaga qarshi kurash va xalqning o'zliki ekanligini ta'kidlagan. Italian yozuvchisi, adabiyotshunos olima, Benedetta Kraveri, o'zining "Xalq hikoyasi" asarida folklorning milliy o'zlik bilan aloqasini o'rganib, ayniqsa Yevropa kontekstida, xalq urf-odatlarining jamiyatning yagona milliy birlik sifatida shakllanishida qanday muhim rol o'ynaganini ko'rsatgan.

Asosan siyosiy va madaniy qarashlari orqali tanilgan yozuvchi, sotsiolog Antonio Gramsci, "Turmadan maktublar" nomli kitobida folkloرنi "quyi sinf madaniyati" sifatida tahlil qilib, bu xalq qarshiliklarini qanday ifodalashi va milliy o'zlikni belgilashdagi rolini muhokama qilgan. Amerikalik folklorshunos John Miles Foley, folkloرنi "og'zaki nutqiy ifodaning" shakli sifatida o'rganib, og'zaki an'analar milliy va madaniy o'zlikni shakllantirishda qanday yordam berishi mumkinligini ta'kidlagan. Ushbu olimlar va ularning asarlari folklorning milliy o'zlikni yaratish va saqlashdagi o'rnini tushunishga yordam beradi. Ular xalq madaniyatining jamiyat, tarix va qadriyatlar bilan aloqalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Italiyaning folkloristik matnlari, masalan, ertaklar, afsonalar, xalq qo'shiqlari va maqollar ko'pincha mahalliy jamoalarning "tirik xotirasi" bo'lib xizmat qiladi. Ushbu matnlar faqat fantastik yoki afsonaviy hikoyalarni so'zlab bermaydi, balki ular Italiyaning tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy real hayotiga chuqr kirib borgan. Bu hikoyalarning ko'pchiligi milliy o'zlikni shakllantirgan qadriyatlar va prinsiplarni aks ettiradi, masalan, erkinlik uchun kurash, vatanparvarlik, shon-sharaf va oilaviy qadriyatlar shular jumlasidandir.

Quyida o'zbek va italyan tilidagi maqollarni semantik va etimologik jihatdan tahlil qilish orqali ikki millat qadriyatları va madaniyatlarining o'ziga xosliklarini, o'xhash tomonlarini qarab chiqamiz.

1. **"Meglio un uovo oggi che una gallina domani"**- *Ertangi tovuqdan bugungi tuxum afzalroq*, ya'ni, ertangi zo'r narsani kutgandan ko'ra, bugungi yaxshisiga qanoat qilmoq kerak, sababi bundan yomoni ham bo'lishi mumkin edi. Bu ibora mashhur masalnavis Ezop durdonalaridan birida hissa sifatida keltirilgan: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, olis o'lkalarning birida bir cho'pon yashar ekan. Uning bir ozg'in, qari iti bor ekan. Kunlardan bir kuni qari it hovlidagi hashak ustida uxbab yotsa, qarshisida bir och bo'ri paydo bo'libdi va uni yemoqqa chog'lanibdi. Shunda, aqlii it debdi: "Ko'rmayapsanmi qanchalik ozg'inman? Bu holatimda baribir sening nafsingni qondira olmayman. Yaxshisi bunday qilamiz: yaqinda xo'jayinlarim to'y qilishadi, shunda men ham ko'p ovqat yeb semiraman. Bir necha kundan keyin qaytsang, to'yib ovqatlanasan". Bo'ri o'lgudek och bo'lishiga qaramasdan, itning semirgan holatini tasavvur qilgancha o'z yo'lida davom etibdi. Oradan biroz vaqt o'tgach bo'ri xursand

it yoniga kelibdi. Qarasaki, it tom ustida xotirjam uxbab yotgan emish. Bo‘ri g‘azab otiga minib, baqira boshlabdi va itga uning bergen va’dasini eslatibdi, it esa xotirjam javob qaytaribdi: ”Kelasi safar meni hashak ustida ko‘rsang, xo‘jayinlarimning nikoh to‘yini kutib o‘tirmasdan, ozg‘inligimcha yeyaver”. Bo‘ri ochlikdan azoblanib, afsuslar ila o‘rmonga qaytibdi ”. Italian badiiy adabiyotida ushbu ibora ko‘pincha didaktik mavzudagi asarlar xulosalarida foydalaniladi. O‘zbek tilshunosligida ”Bugungi ishni ertaga qo‘yma”, ”Uzoqning bug‘doyidan, yaqinning somoni yaxshi”, ”Borini barakasini bersin”, ”Birni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukr” kabi birliklarni ma’lum ma’noda ekvivalent sifatida keltirish mumkin. Tuxum va tovuq o‘rtasidagi analogiya boshqa tillarda ham mavjud, masalan inglizcha mashhur iborani keltiraylik: ”A bird in the hand is worth two in the bush” (Qo‘lda bir qush, butada ikkita qushga teng). Hozirgi paytda bor narsalar kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ammo noaniq narsalarga qaraganda afzalroq. Bu maqol xalq madaniyatining bir qismi bo‘lib, zamonaviy tillarda uning mavjudligi, bugun va keljak o‘rtasidagi muvozanatni saqlash borasidagi an’anaviy dono qarashlarni namoyon etadi.

2. **“Una rondine non fa primavera”**- Birgina qaldirg‘och bahorni yasamaydi. Ya’ni bizning tilimizda aytiganda, ”*Podadan oldin chang chiqarmoq*”, ”*Daryo ko‘rmay etik yechmoq*” kabi izohlarga to‘la ma’noda mos keladi. Ko‘chma ma’noda esa birgina yaxshilik alomati yakun ham yaxshilik bilan tugaydi, degani emas. Bir narsaga ishonib, harakatni to‘xtatish yoki keskin qaror qabul qilmaslik lozim. Bu haqda Dante o‘zining ”Convivio” asarida(I, 9,9) qayd etib o‘tadi: Ustozim Aristotel o‘zining ”Etika”sida ta‘kidlab o‘tganlaridek, ”bir qaldirg‘och bahor keldi degani emas”.

Mazkur frazeologik birlik italyan xalqi orasida shunday tarixga ega: bir paytlar, uzoq o‘tmishda hech narsani qadrlamaydigan bir isrofgar odam yashagan ekan. Qishning so‘nggi kunlarining bir tongida o‘sha odam derazasidan tashqariga ko‘z tashlabdi va moviy osmon bag‘rida bir qaldirg‘och qanot qoqyotganini guvohi bo‘libdi. ”Voy, allaqachon bahor kelibdi-ku!?” deya xursand bo‘lib, barcha issiq kiyimlari-yu, ko‘rpa-to‘shakalrini arzonga pullab yuboribdi. Ammo ko‘p o‘tmasdan yana bo‘ronli va yomg‘irli kunlar boshlanib, osmon bag‘ridagi qaldirg‘och ham qayergadir g‘oyib bo‘libdi. Bizning qahramonimiz esa issiq kiyimlari yo‘qligi sababli sovuq yeb, kasal bo‘lib qolibdi. Shunda o‘ziga-o‘zi debdi: Axir men qaldirg‘ochni ko‘rgandimku? Demak, birgina qaldirg‘och bahor keldi, degani emas ekan-da!

Bunday birliklar qatorini italyan va o‘zbek tillarida ko‘plab uchratish mumkin. Ularning har biri o‘zining tarbiyaviy ahamiyatiga, chuqur mazmuniga ega. Xalq og‘zaki ijodining sermahsul ifodasi sanalmish maqollar o‘zlarining hayotiy tajriba ko‘zgusi ekanligi, hamda mazmunida ibratomuz g‘oyalarni mujassamlashtirganligi sababli ham jamiyat hayotida yillar, asrlar o‘tsa-da, o‘z ma’no hamda ahamiyatini saqlab kelmoqda. Maqollar bevosita ma’lum bir xalq, millatning yashash tarzi, milliy qarashlari, ruhiyati hamda tarixiy tajribasidan kelib chiqqan holda yaratiladi, ammo ularning maqsadi yagona- xalqni ezgulikka, kishilarni ezgu xulqqa ega bo‘lishga chorlamoq. Umumiy ma’noda maqollar mazmuniga ko‘ra xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pittano G. Simonimi e contrari. – Milano: Zanichelli editore, 1997.
2. Provenzal D. Grammatica italiana. - Edizioni scolastiche: Mondadori, 1954. - p. 245
3. Salvi G. Le parti del discorso. – Roma: Carocci editore, 2013.
4. Sambugar M. Strutture dell`italiano. – Verona: Fides, 1990. – p. 639
5. De Mauro T.; Mancini M. Dizionario etimologico. – Milano: Garzanti Linguistico, 2000.